

QO'CHQOR NORQOBIL QISSALARINING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI

*Asadova Shahnoza Vahobjon qizi,
SamDU 1-kurs magistri*

XX asr juda suronli, murakkab davr sifatida tarixdan o'rin oldi. O'zaro urushlar, kurashlar, jamiyat tanazullari, inson tafakkuridagi evrilishlarning barchasini kuzatish mumkin. Ana shu jihatlar badiiy adabiyotda turli shaklda, tur va janrlarda badiiy ifodasini topdi. Ammo ma'lum bir sotsial jamiyat hayotni borlig'icha talqin etish usullariga imkon bermasdan, ma'lum bir me'yor va qoliplatga badiiy asarlarni singdirishga haralat qilib keldi. Faqat, o'tgan asr so'ngiga kelibgina, ijodkorlar insonni anglash, uni bor-bo'yicha tasvirlash borasida mafkuraviy tazyiqlardan xalos bo'ldi. Shu jihatdan qissachilik taraqqiyotida ham shu xususiyatlarni kuzatish mumkin.

O'zbek qissachiligidagi adabiy qahramonlarning dunyoqarashi, hayotga munosabati ham o'zgardi. Adabiyotshunos Umarali Normatov bu haqida so'z yuritib shunday yozadi: "Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda, birinchi galda undagi mavzu, muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e'tiborni tortadi. Ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy - siyosiy, oilaviy-maishiy, ishqiy mavzulardagi ham an'anaviy romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik sarguzasht-detektiv yo'nalishdagi asarlarni ko'rish mumkin" [1, 157-bet].

Haqiqatdan ham, o'zbek qissachiligida yangi nomlar, yangi qahramonlar adabiy hayotimizga yangi mazmun bag'ishladi. Ayni paytda o'zbek qissachiligida yangi qahramonlar safi kengayib bormoqda. Ular bizning ko'nglimizga yaqin va qadr don zamondoshlarimiz ekanligi hech kimga sir emas, chunki ular kitobxonlar qalbidan allaqachon joy olib ulgurdi.

XX asr adog'I XXI asrga kelib qissachilik taraqqiyotining o'ziga xos tamoyillarini kuzatish mumkin. Buning natijasida, insonni anglash, muhit va shaxs fojialarini badiiy talqin etish tamoyillari poetik talqinda teranlik kasb etib kelmoqda. Shu jihatdan, iste'dodli adib Qo'chqor Norqobilning keyingi yillarda yaratilgan qissa janridagi asarlarining mohiyati, badiiylik funksiyasi kabi ifoda shakllari, ijodkorni iste'dodini ham namoyon qildi.

Adibning "Bosinqirash", "Arosat", "Xun", "Quyoshni kim uyg'otadi?", "Osmon ostidagi sir", "Yangi yil kechasida", "Bu yerlarda hayot boshqacha", "Ko'zlaringni ko'rgani keldim", "Nozi...Nozigul", "Yer hali ham yumaloq", "Bizni oqibat qutqaradi" hikoyalari; "Daryo ortidagi yig'i", "Kulib tur, azizim", "O'n sakkizga kirmagan men bor", "Qordagi lola" qissalari fikrimizning dalilidir. Qo'chqor Norqobil o'z asarlarida urush dahshatlari, turli fojialar, inson yuragining og'riqlari bilan bir qatorda hayotda eng toza borliq – Muhabbat bor, demoqchi. Urush ichidagi muhabbat

asar qahramoniga eng og'ir damlarda kuch-quvvat, ishonch baxshida etishini qayd qilingan ba'zi qissalalarda juda teran talqin etgan.

Yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'lib, u asarlarida hayotiy voqealarni, uning murakkab va fojialari bilan uzviy birlikda, boricha yoritishga intiladi. Bu haqda yozuvchi Shukur Xolmirzayev ijodkorning "Quyoshni kim uyg'otadi?" qissa va hikoyalar to'plamiga yozgan "Iztirob" deya nomlangan so'zboshisida shunday fikrlarni bayon etadi: "Qo'chqorning shoirona nasrida reallik bilan noreallik ko'pincha omuxta bo'lib ketadiki, bunga erishish juda qiyin-e: birinchidan, bunday irrealistik nasr tajribalari bizda yo'q. Ikkinchidan, bu yo'l man-man degan adibni ham uloqtirib-o'tlatib ketadi, demak, asar maqsadidan kelib chiqadigan chegaragina uni tutib turishi mumkin. Endi, asarning maqsadi – urush fojiasini-urushning inson ruhidagi o'zgartirishlarini, ruhdagi iztirobli to'lg'oqlarni tasvirlash va oqibat uning fojia natijasini ko'rsatishdan iborat bo'lsa, hali yosh, dunyoviy adabiyotning bu boradagi tajribalari bilan endi tanisha boshlagan va shu asno o'zini kashf etayotgan yozuvchiga naqadar og'irlik tushadi" [2,3-4-betlar].

Yozuvchi asarlarida shiddatli kurashlar, inson taqdirining murakkab jarayonlari, ruhiy istiroblar iskanjasidagi inson qismati bularning o'ziga xos talqinlarida adibning hayotni, uning mohiyatini anglashga bo'lgan ehtiyojini kuzatish mumkin. Adib asarlaridagi xarakterli jihatlardan biri ham, inson qismati, uning eng murakkab jarayondagi kechinmalari muhabbatga bog'lanadiki, bu esa uni yashashga, qiyinchiliklarni ortda qoldirishga kuch-quvvat bag'shida etilishi bilan izohlanadi.

Badiiy ijodda, xususan, o'zbek qissachiligida ham yozuvchining o'ziga xos uslubiga ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Adabiyotshunos O'. Nosirovning fikricha: "Yozuvchining hayotni obrazli o'zlashtirishi, uning original badiiy kartinasini yaratishda talanti, ijodiy mustaqilligi, o'ziga xosligi, hayotiy fakt va hodisalarni, insoniy munosabatlarni yangicha talqin qilishi, "yangi so'z" aytish mahorati, adabiyotda o'z ovozi, o'z uslubini yaratish muhim ahamiyatga ega. Chunki badiiy ijod har bir avtordan ijodiy mustaqillikni, tasvir predmetiga subyektiv munosabatni taqozo etadi" [3, 73-bet].

Iste'dodli adib Qo'chqor Norqobil ijodiga nazar tashlansa, uning ijodidan o'rin olgan asarlarning poetik mukammal, mamun ohangdorligi, shaklga hamohang tarzda shakllantirilganligini kuzatish mumkin. Obrazlar olamining poetik ifodasida adibning urush voqeligidagi insoning xarakter qirralarini haqqoniy yoritishga intiladi. Ularning qalbidagi isyonni bosishga, uni o'chirishga imkon yo'qligini qator talqinlarda kuzatish mumkin.

Adabiyotshunos Shuhrat Rizayev adibning "Osmon ostidagi sir" deb nomlangan hikoyalar to'plamiga yozgan "Xotira va muhabbat qurshovida" sarlavhali muqaddimasida quyidagi fikrlarni keltiradi: "...Qo'chqorning asarlari boshqalarnikidan qaysi jihatlari bilan farqlanadi desa, kamina, avvalo, uning

an'anaviy, sof realistik tafsiliy yo'sinda yozishi hamda bitiklarida ikki jihat: afg'on urushi mavzusi, motiv ham ohanglari va Surxon koloriti bo'rtib ko'rinishini ayirib ko'rsatgan bo'lar edim".

Darhaqiqat, juda haqli va asosli tushunchalarni qayd etgan, chunki afg'on urushi o'sha tuzimning fojiasini, zulmkorligini, inson qadrining qiymatini belgilab berganligini ham qayd etish mumkin. Shuning uchun ijodkor afg'on urishidagi voqelalarni, inson qismati, uning ruhiy kechinmalariga singdiradiki, bu esa asosli badiiy qahramonlarni shakllanishiga keng imkon beradi. Yozuvchi bu davr voqeligini shu darajada mukammal talqin etadiki, asar qahramonlaridagi ifoda shaklda realistik tasvirning turli jihatlarini mavjudligini ham his eta boshlaysiz. Adib qahramonlari murakkab, ammo shiddatli janglarda ham tushkunlikka tushmasligi, lekin urushning mohiyatini anglab etmayotganligini bot-bot takrorlashida ham, muallifning o'sha adolatsiz tuzimning haqqoniy qiyofasini ochishga imkon bergan: "Har doimgiday batalon saf maydoniga tizildi. Kupin askarlarning jangga tayyorgarligini tekshirib ko'rdi. O'q-dorini kam olgan askarlarni o'rta chiqarib, boloxonador qilib so'kdi... Bu ham etmagandek, sen o'zbeklar bosmachisanlar, senlar afg'onlardan farqing yo'q, qo'yib bersa, o'shalar tomonga o'tib ketasanlar, qo'ylar, axmoqlar, deb sasigani o'zbek bolalarining jon-jonidan o'tib ketdi" [4, 67-bet].

Talqinlarga nazar tashlar ekanmiz, davr va muhitning murakkab tomonlari haqqoniy ochib tashlangani, o'zbek yigitlarining bu o'rindagi ori-g'ururini ham haqqoniy ko'rsata olgan. Chunki safda turgan o'zbek askari (uni safdoshlari shoir ham der edilar) kamandirlik qilayotgan Kupinga qarata "- Nega sizlar millatimizni, biz – o'zbeklarni buncha yomon ko'rasizlar? Biz o'zimizdan qolgan xalq emasmiz. O'zimizni eplab yuribmiz. Orimiz mustahkam. Iltimos, o'zbeklarni haqoratlamang" [3, 67-bet].

Bu tushunchalarni qayd etgan badiiy qahramonimiz qalbidan kechgan hislarni yaxgina anglashishimiz, buning sababi esa, sotsial jamiyatning murakkab qirrali, millatlar o'rtasidagi tengsizlikka asoslangan, jamiyat tanazulidan dalolat ekanligini voqealar rivojida teranroq anglash imkoniga ega bo'lamiz.

Xullas, iste'dodli adib, Qo'chqor Norqobil asarlarining o'ziga xos tamoyillari, realistik tasvir asosida inson va muhitning eng murakkab, xarakterli jihatlarini haqqoniy ochib bergan.

Adabiyotlar:

1. Normatov U. Qissadan hissalar // "Jahon adabiyoti", 1997-yil №3, 157-b.
2. Nosirov O'. Badiiy uslub mavzuidan talqinlar. // Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – T.: Fan, 1981. – B. 73.
3. Xolmirzayev Sh. Istirob. Ma'lumot uchun qarang: Qo'chqor Norqobil. Kulib tur, azizim. Qissalar. – Toshkent, Sharq, 2004. 3-4-betlar.

4. Nasirov, N. A. (2021). The history of literary translation from uzbek into english. Academic research in educational sciences, 2(6), 1011-1022.
5. Nasirov N. A. (2019). The translation problems of utkir khoshimov's works into english. Иностранные языки в Узбекистане, (3), 133-141.
6. Nasirov, A. N. (2019). Stylistic units and compositional impartiality. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.